

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“BUXGALTERIYA HISOB VA AUDIT” kafedrası

“**MOLIYAVIY HISOB**” fanidan

“*Valyuta schotidagi mablag'larning hisobi*” mavzusidan

REFERAT

Bajardi: BH–109 guruh talabasi

Bo'tayev O'tkir

Ilmiy rahbar: proff. Musayev

Hasan Narziqulovich

SAMARQAND – 2011

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Korxonalar uchun bankda valyuta schotining ochilish tartibi.....	4
Valyuta schotiga kelib tushgan pul mablag'larining hisobi.....	7
Valyuta schotidan sarflangan mablag'larning hisobi.....	8
Xulosa va takliflar	9
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	10

KIRISH

Bozor iktisodiyoti sharoitida nakd pulsiz hisob kitoblardan samarali foydalanish korxonalar iktisodiyotining barkaror rivojlanishining ta'minlovchi asosiy omillaridan biridir. Chunki korxonalar faoliyatining uzluksiz davom etishini ta'minlash uchun zarur ishlab chikarish zaxiralari va mexnat vositalari sotib olish, davlat byudjetidan tashkari fondlar uchun tulovlarni amalga oshirish uchun ma'lum mikkorda nakd pulsiz hisob kitoblar talab kilinadi. Shuning uchun ham korxonalar mavjud pul mablag'larini yukorida kursatilgan maksadlarga sarflashda iktisodiy jixatdan manfaatli va tejamli bulgan hamda korxonaga o'z mablag'laridan ratsional foydalanish imkonini berishni birinchi navbatda hisobga olish zarur. Yukoridagi fikr va muloxazalar ushbu mavzuning dolzarbligini belgilab beradi va bozor munosabatlari sharoitida korxonalarning pul mablag'lari va ularning harajati to'g'risidagi boshkaruv apparati uchun zarur ma'lumotlarni buxgalteriya shakllantirish masalalarini urgatadi.

Korxonalar xo'jalik faoliyatida ishtirok etuvchi aktivlar ichida juda katta rol ni pul mablag'lari o'ynaydi.

Pul mablag'lari deganda o'ta tez likvidlik harakteriga ega bo'lgan, barcha munosabatlarda umumiy ekvivalent rolini o'ynaydigan, davlat tomonidan qog'ozli va metalli ko'rinishda ma'lum qiymatlarda chiqariladigan maxsus tovar tushuniladi. Pulning jamiyatdagi o'rni u tomonidan bajariladigan qiymat o'lchovi, to'lov vositasi, muomala vositasi va jamg'arish vositasi kabi funsiyalarida yorqin namoyon bo'ladi.

KORXONALAR UCHUN BANKDA VALYUTA SCHOTINING OCHILISH TARTIBI

Korxonalarining bo'sh turgan pul mablag'lari bankda ochilgan hisob-kitob schyotida saqlanadi. Hisob- kitob schyoti korxona tashkil etilgan vaqtda tanlab olingan bank muassasalaridan birida ochiladi.

Bankdagi valyuta scheti korxonaning respublika xududidagi va xorijdagi banklarda valyuta schetlarida xorijiy valyutadagi pul mablaglari mavjudligi va harakati haqidagi axborotni umumlashtirish uchun muljallangan.

Valyuta schyotini ochishga asos bo'lib tashqi iqtisodiy faoliyatni yuritishga berilgan ruxsatnoma (litsenziya) , korxona ustavi, mahalliy hokimiyatdan davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risida qaror va boshqa tegishli hujjatlar hisoblanadi.

Valyuta schetlari bo'yicha muomalalarni amalga oshirish va rasmiylashtirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat Solik kumitasi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari bilan tartibga solinadi. Valyuta schetlari bo'yicha muomalalarni hisobga olish uchun schetlar rejasida 5200 "Valyuta scheti" belgilangan. 5200 "Valyuta scheti"ning debetida korxonaning hisob-kitob schetlariga pul mablaglarining kelib tushishi aks ettiriladi. Ushbu schetning kreditida esa korxonaning valyuta schetlaridan pul mablaglarining hisobdan chikarilishi aks ettiriladi. Korxonaning valyuta schetlari krediti yoki debetiga xato yozilgan va bankning kuchirmalarini tekshirishda aniklangan summalar 4860 "Da'volar bo'yicha hisob-kitoblar" schetida aks ettiriladi. Valyuta schetlari bo'yicha muomalalar buxgalteriya hisobida bankning kuchirmalari va ularga ilova kilingan pulli hisob-kitob hujjatlari asosida aks ettiriladi. Amaldagi konun va me'eri hujjatlarda har kanday korxonaga chet el valyutasidagi pul mablaglariga ega bulish va u bilan xujalik muomalalarini amalga oshirishga ruxsat etilgan.

Valyuta schyotidagi pul mablag'larining hisobi 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» va 5220 « Chet eldagi valyuta schyotlari» da yuritiladi. Ushbu valyuta schyotlarini yuritish hisob-kitob schyotini yuritish tartibiga to'liq o'xshaydi. Faqat farq shundaki, valyuta schyotlari ikki birlikda, ya'ni chet el valyutasi va milliy valyutalarda yuritiladi. Bank valyuta schyotlaridagi pul mablag'larining holati va harakatini faqat chet el valyutasida hisobini yuritadi va chet el valyutasida ifodalangan valyuta schyotlaridan ko'chirmani beradi. Korxona esa valyuta schyotlaridagi pul mablag'larini ham chet el valyutalarida, ham ularni Markaziy bank e'lon qilgan rasmiy kurslar bo'yicha milliy valyutaga o'tqazilgan holda hisobga oladi.

Buxgalteriya balansini va moliyaviy hisobotning boshqa shakllarida chet el valyutalari faqat milliy valyuta hisobida aks ettiriladi.

Valyuta schetini ochish uchun korxona bankka quyidagi hujjatlarni topshirishi zarur:

1. Valyuta schetini ochish uchun ariza.
2. Tasis hujjatlarining nusxasi (ustav, tasischilar shartnomasi, ular notarial idoralar tomonidan tasdiklangan bulishi shart).
3. Registratsiyadan utganligi haqidagi hujjatlarning notarius tomonidan tasdiklangan nusxasi.
4. Korxona solik inspeksiyasida hisobga olganligi va pensiya fondida registratsiyadan utkanligi to'g'risida ma'lumotnoma.
5. Korxona boshligi va bosh buxgalterning imzolari va aylanma muxr bosilgan kartochka. Ushbu kartochka notarius tomonidan tasdiklangan bulishi zarur.

Valyuta scheti ochilgandan sung bank va uning mijozi urtasida hisob-kitob kassa xizmatini kursatish bo'yicha shartnoma imzolanadi. Unda bank kursatilgan xizmat turlari, kursatiladigan xizmatlar uchun tulanadigan haqlar, mablaglarni joylashtirish shartlari, tomonlarning huquq va burchlari va boshkalar kursatiladi.

Valyuta muomalalarining buxgalteriya hisobini yuritish uchun 5200 "Valyuta scheti"da quyidagi subschectlarni ochish mumkin:

1. "Tranzit valyuta scheti"
2. "Joriy valyuta scheti"
3. "Chet eldagi valyuta scheti".

Korxona uzining valyuta mablaglarini nafakat majburiy balki uz xohishi bilan ham sotishi mumkin.

Korxona hisob-kitob schyotidan pul mablag'lari naqdsiz yo'l bilan boshqa korxonalarga, davlat organlariga o'tqazib beriladi, shuningdek bankning o'zi orqali shartnoma shartlariga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar uchun ushlab qolinadi. Pul mablag'larini naqdsiz chiqim qilishga asos bo'lib to'lov topshiriqnomalari, inkasso topshiriqnomalari, bankning memorial orderlari hisoblanadi.

To'lov topshiriqnomasi – bu korxona tomonidan bankga ma'lum bir summani boshqa yuridik shaxslarga olingan aktivlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun, shuningdek korxonaning davlat organlari oldidagi majburiyatlarini to'lash uchun bergan yozma guvohnomasi. Barcha korxonalar uchun yagona shakl va mazmunga ega bo'lgan ushbu hujjatda uning tartib raqami, tuzilgan sanasi, to'lovchi va oluvchi korxonalarning nomlari, bank rekvizitlari, soliq to'lovchi sifatidagi rekvizitlari, o'tqaziladigan summaning miqdori, o'tqazish maqsadi va unga asos bo'luvchi hujjatning tartib raqami va sanasi ko'rsatiladi. To'lov topshiriqnomasi korxona rahbari va bosh hisobchi tomonidan imzolanadi va korxona muhri bilan tasdiqlanadi.

Inkasso topshiriqnoma – bu bank muassasasiga soliq idorasi, yo‘l fondi va boshqa majburiy to‘lovlarni yig‘uvchi organlar tomonidan korxonaning ruxsatisiz uning hisob-kitob schyotidan o‘tqazib berish uchun kelib tushgan yozma topshiriqnoma.

Memorial –orderlar – bu bank muassasaning ko‘rsatgan xizmatlari uchun korxonaning hisob-kitob schyotidan o‘ndirib olgan summalarini tasdiqlovchi hujjat.

Bank muassasasi barcha kirim va chiqim hujjatlari asosida shartnomada ko‘rsatilgan muddatlarda korxonaga hisob-kitob schyotidan ma‘lum bir davr uchun ko‘chirma beradilar. Ko‘chirmada davr boshi va oxiriga hisob –kitob schyotidagi pul mablag‘larining qoldig‘i, shu davrdagi barcha kirim va chiqimlarning summolari hujjatlar asosida ko‘rsatiladi. Bank ko‘chirmasiga chekdan tashqari barcha kirim va chiqimga guvohlik beruvchi hujjatlar ilova qilinadi. Bank ko‘chirmalari korxona buxgalteriyasida hisob-kitob schyotidagi pul mablag‘larining sintetik va analitik hisob registrlarini yuritishga asos bo‘ladi.

Korxonaning buxgalteriyasida 5200 "Valyuta scheti"ning hisobi uchun juranl-order va vedomostda yuritiladi. Valyuta scheti bo‘yicha analitik hisob valyutalarning turlari bo‘yicha aloxida kartochkalarda yuritiladi. 5200 "Valyuta scheti"ning analitik hisob kartochkasi

Valyutaning nomi

valyuta kursi

oy boshiga qoldiq bo‘yicha

Bank kuchirmasi (sana, tartib rakami)	Muomala sodir bulgan kunga valyuta kursi	Oborotlar			
		Reyting bo‘yicha		Kredit bo‘yicha	
		Valyuta summasi	Kursi bo‘yicha	Valyuta summasi	Kursi bo‘yicha

Oy bo‘yicha jami

Oy oxiriga qoldiq

VALYUTA SCHOTIGA KELIB TUSHGAN PUL MABLAG'LARINING HISOBI

Chet el valyutalarining kelib tushishi va chiqimi operatsiyalar yuz bergan sanadagi rasmiy kurslar bo'yicha hisobga olinadi. Kelib tushgan sanadan boshlab mavjud chet el valyutalari bo'yicha rasmiy kurslarni o'zgarishi sanasiga kurslar o'rtasidagi farqlar vujudga keladi. Agar kurslar o'sish tomonga o'zgargan bo'lsa mavjud chet valyutalari bo'yicha korxona ijobiy kurs farqlaridan daromadga ega bo'ladi. Agar kurs pasayish tomonga o'zgargan bo'lsa mavjud chet valyutalari bo'yicha korxona salbiy kurs farqlaridan zarar ko'rgan bo'ladi.

Valyuta schyotlari bo'yicha asosiy xo'jalik operatsiyalariga quyidagi buxgalteriya yozuvlari qilinadi.

Tartib raqami	Operatsiyaning mazmuni	Debet schet	Kredit schet	Yozuvga asos bo'luvchi hujjat
1.	-korxona kassasidan tushganda		5010	
2.	-haridorlardan avans tushganda		6310	
3.	-haridorlardan qarz kelib tushsa		4010	
4.	-ta'sischilardan olinganda		4610	
5.	-ta'minotchilardan qaytarilganda		6010	Chiqim kassa orderi, bank ko'chirmalari va ularga ilova qilingan hujjatlar
6.	-kredit olinganda	5210-	6810	
7.	-qarz olinganda	5220	6820	
8.	-qaytarilmaydigan moliyaviy yordam kelib tushganda		9380	
9.	-maqsadli mablag'lar kelib tushganda		8810- 8890	
10.	-inkassator summasida ortiqcha summalar aniqlanganda		9390	
11.	-ijobiy kurs farqlariga		9540	

VALYUTA SCHOTIDAN SARFLANGAN MABLAG'LARNING HISOBI

Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurutuvchi korxonalarda valyuta schotidagi pul mablag'larning sarfi, ya'ni chiqimi aktiv schot bo'lganligi sababli uning kreditida aks ettiriladi

Tartib raqami	Operatsiyaning mazmuni	Debet schet	Kredit schet	Yozuvga asos bo'luvchi hujjat
1.	-korxona kassasiga kelib tushganda	5020		
2.	-kredit qaytarilganda	6810		
3.	-qarz qaytarilganda	6820		
4.	-ta'minotchiga avans o'tqazilganda	4310- 4330		
5.	-ta'minotchiga qarz o'tqazilsa	6010		
6.	-haridorga avans qaytarilsa	6310	5210-	Bank
7.	-kelgusi davr uchun sarflansa	3110- 3190	5220	ko'chirmalari va ularga ilova qilingan boshlang'ich hujjatlar
8.	-xayriya sifatida o'tqazilsa	9430		
9.	-ta'sis badali sifatida kiritilsa	0600		
10.	-valyuta sotilganda	9220		
11.	-salbiy kurslar farqiga	9630		

Valyuta schyotlaridagi pul mablag'larining analitik hisobi bank muassasalarida ochilgan schyotlar bo'yicha yuritiladi.

Muxtasar qilib aytganda, Pul mablaglari - bu korxonaning asosiy tulov vositalaridan biri hisoblanadi. Korxonalarning pul mablaglari asosan hisob-kitob schetida, kassada, valyuta schetida va maxsus schetlarda saklanadi. Pul mablaglari hisobi kassa kitobi, kassa kirim-chikim orderlari, hisob-kitob schetidan kuchirmalar va boshka hujjatlar yordamida yuritiladi.

Nakd va nakd pulsiz shaklidagi hisob-kitob operatsiyalari mavjud.

Pul mablag'lari bo'yicha buxgalteriya hisobining asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanishini ta'kidlab o'tish joiz:

- Pul mablag'lari holati va harakati ustidan doimiy nazoratni olib borish;
- .Pul mablag'larini kassadan o'z vaqtida bankga topshirishni nazorat qilish;
- Kassada pul mablag'larining belgilangan minimal miqdoridan ko'p miqdoridagi pul mablag'larini turib qolishiga yo'l qo'yilmaslikni nazorat qilish;
- Pul mablag'laridan maqsadli foydalanishni nazorat qilish;
- Pul mablag'lari harakatini o'z vaqtida va to'g'ri tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirish;
- Pul mablag'lari bo'yicha moddiy javobgarlikni o'rnatish, moddiy javobgar shaxslarning faoliyatini doimiy nazorat qilib boorish.

Pul mablag'larini butligini, talan-taroj bo'lib ketmasligini doimiy nazorat qilish, buning uchun ularni qonunda belgilangan muddatlarda (har oyda) inventarizatsiyasini o'tqazili korxonaning kelajakdagi faoliyatiga hamda daromadlar darajasiga yanada ijobiy samara keltirishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.** O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2003.
- 2.** Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni. “Ma’rifat” gazetasi. 1998-yil, 1-aprel soni.
- 3.** O'zbekiston respublikasi Qonuni: “Buxgalteriya hisobi to’g’risida”, 1996-yil, 30-avgust.
- 4.** O'zbekiston respublikasi Qonuni: “Auditorlik faoliyati to’g’risida”, 2000-yil, 26-may.
- 5.** “O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standartlari” TO'PLAMI. – T.: “Norma”, 2010.
- 6.** “O'zbekiston Respublikasi Auditorlik faoliyati standartlari”. – T.: “Norma”, 2010.
- 7.** Urazov K.B. “Buxgalteriya hisobi va audit”. –T.: “O’qituvchi”, 2004.
- 8.** Musayev H.N. “Audit”. – T.: “Moliya”, 2003.
- 9.** Tulaxodjayeva M.M., Jurayev T. I. va Gulyamova F. G. “Audit” umumiy tahriri ostida tayyorlangan o‘quv qo‘llanmasi. – T.: TDIU va O‘BAMAM, 2004.
- 10.** www.ziynet.uz sayti
- 11.** www.google.uz internet portali.